

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YANGI KONSTITUTSIYASI:
GENDER TENGLIK**

Zarina Rustam qizi Tojimurodova

*TDTrU TDTrU yurisprudensiya
(xalqaro transport huquqi)yo'nalishi
2-bosqich talabasi
Zarinarustamovna0221@.com*

Annotatsiya: ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb mavzusi bo'lgan gender tenglik masalasi, ushbu tushunchaning to'liq ta'rifi, olib borilayotgan islohotlar va qonunchilikdagi yangiliklar, shuningdek, O'zbekistonda gender teng jamiyatni qurishdagi asosiy e'tibor va ko'rsatkichlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: konstitutsiya, qonun, jamiyat, demokratiya, hokimiyat, shaxs, inson huquqlari, erkinliklar, kafolatlar, gender tenglik, normativ-huquqiy hujjatlar.

Hayot shiddat bilan o'zgarayotgan davrda jamiyat ham taraqqiy etar ekan, insonlar ham zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qilishadi. Bu Ayollarga ham tegishlidir. Endilikda ayollar faqat uy ishlari, bola tarbiyasi bilan shug'ullanib, „yo oila, yoki ish“, degan fikrlar gender tengligiga to'sqinlik qiladi. Ko'rib turibmizki, rivojlanishning eng o'tkir muammolaridan biri- tenglikka erishish, ayniqsa, jamiyatda ham, oilada ham erkak va ayolning gender tengligiga erishish eng og'ir masalalardan biridir.

Ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglik- bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasidagi teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlardir. Ba'zi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, gender tengligi – patriarxal tizimdan keyingi ijtimoiy-jinsiy munosabatlarning keyingi bosqichi. Gender tengligi tamoyili insonning shaxs sifatida paydo bo'lishiga to'sqinlik qiladigan barcha ijtimoiy to'siqlarni o'rganish va yo'q qilish, shuningdek, hayotning barcha sohalarida erkaklar va ayollar shaxsiyatini anglash uchun teng ijtimoiy imkoniyatlarni yaratishdan iborat. Bugungi kun tili bilan aytganda, gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatning barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi. Shuningdek, bu borada ayollar huquqlariga ham alohida to'xtalib o'tish lozim. Mualliflar ayol huquqlarining mazmun-mohiyatini keng tahlil etish asosida ayol huquqi tushunchasiga quyidagicha ta'rif beradi : «ayoi huquqlari bu – inson huquqlarining ajralmas qismi bo'lib, xalqaro va milliy huquqiy normalar asosida shakllangan, xotin-qizlarning o'ziga xos xususiyatlarini (reproduktiv, fiziologik va h.k.) inobatga olgan holda

tizimlashgan, davlatlar hamda xalqaro hamjamiyatlar tomonidan kafolatlanadigan qoidalar majmuidir».

BMT tashkiloti ro'yxatida gender tengligini ta'minlash ayollar va qizlarning huquqlarini erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquq va teng imkoniyatlarni ta'minlash masalalari quyidagi asosiy xalqaro hujjatlarda o'z aksini topgan, bular: Atrof muhit va rivojlanish bo'yicha Rio-de-Janeyro Deklaratsiyasi (Rio Deklaratsiyasi, 1992 y.), Aholishunoslik va rivojlanish bo'yicha Qohira konferensiyasi (1994), Xotin-qizlar ahvoli bo'yicha Pekin konferensiyasi (1995) va Inson manzilgohlari bo'yicha Istanbul konferensiyasi (1996). Bular – Umumjahon inson huquqlari Deklaratsiyasi, «Xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllariga barham berish to'g'risida»gi Konvensiya, Mingyillik rivojlanish maqsadlari va boshqalar. BMTga a'zo-davlatlar uchun ayollar va erkaklar tengligini ta'minlashga doir milliy majburiyatlarni to'liq bajarish Ming yillik rivojlanish maqsadlariga erishish va BMT tamoyillarini qo'llab-quvvatlashga munosib hissa qo'shish demakdir.

Xususan 2023-yil 1- may sanasidan kuchga kirgan kirgan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 78 – moddasida ayollar va erkaklar huquqlari quyidagicha muhofaza etilishi belgilab qo'yilgan: «Farzandlar o'tanasining nasl nasabi va fuqarolik holatidan qat'iy n azar qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdanto'laqonli rivojlanish uchun eng yaxshi shart sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy ma'daniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi»

Ming afsuski, xotin-qizlar ko'pincha rivojlanish jarayonidan chetda qoladi va hatto unda ishtirok etgan taqdirda ham juda katta qiyinchiliklar, yo'qotishlar (bunda ko'pgina hollarda oilaviy nizolar, ajrimlar) evaziga erishadi. Mazkur holatlarning oldini olishda 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga qaratilgan huquqiy himoya, huquqiy kafolat sifatida ma'qullangandi. Bundan tashqari, ayollar va erkaklar tengligi mamlakatimizning asosiy qonuni – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham aniq belgilab qo'yilgan. Ushbu norma haqida eski konstitutsiyamizning 46-moddasida, yangi konstitutsiyamizning esa, 58-moddasida qayd etilgan. Yangi konstitutsiyada shunday deyiladi: „Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidir. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi”.

Davlatimiz xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi, xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi, bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag'batlantirish to'g'risidagi konvensiyalarga qo'shilgan. O'tgan to'rt yilda yurtimizda ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirishga doir 15 dan ortiq meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va ijroga qaratilgan. Xususan, „Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlar to'g'risida” gi hamda „Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rovonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi qonunlar qabul qilindi.

Prezidentimiz qabul qilgan bir qator farmon va qarorlar davlat tashkilotlariga ayollar huquqlari bilan bog'liq vazifalarni belgilab, ularning ma'suliyatini oshirdi. „Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi qaror ana shunday muhim hujjatlardan biridir.

Endilikda davlat organlarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha vakolatli mansabdor shaxs belgiladi. Vakolatli shaxsning o'z majburiyatlarini bajarishi davlat organi rahbarlarining o'rinbosarlaridan biri zimmasiga yuklatiladi.

Respublikamiz bo'yicha turli korxonalarda ishlayotgan rahbar ayollar 2017-yili 44,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2019-yilda 45,3 foizga yetgan.

Xorijiy tajribani olib qaraydigan bo'lsak, 2015-yilda Pokiston Birlashgan Millatlar tashkilotining gender tengligi va ayollarning huquqlarini kengaytirish bo'yicha bo'limi tomonidan hisobot tayyorlandi. Bu hisobot „BMT-ayollar” deb tanilgan. Hisobotning markaziy masalalaridan biri – ayollarni ish bilan ta'minlash masalasi edi. Hisobot mualliflarning fikriga ko'ra, oily ma'lumotli ayollar soni tarixiy maksimal darajaga yetganiga qaramay, ularning ish bilan ta'minlanish holati achinarli ko'rinishga ega. Universitetlarni imtiyozli diploma bilan tugatgan yosh qizlar, ayniqsa, tibbiyot va matematika kabi fanlardan yosh yigitlarni tobora ortda qoldirishlariga qaramay, ish topa olmaydilar. Hatto ish topishga muvaffaq bo'lganlar ham har doim ham ijtimoiy ishonchsizlik tufayli o'zlarini ishonchli his qila olmaydilar. Ushbu masala rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniqsa dolzarb bo'lib, ularda ayollarning 75 foiz ish o'rinlari, ish beruvchi tomonidan qonuniy majburiyatlari himoyalanmaganini tashkil etadi.

Hisobotda ta'kidlanganidek, rivojlangan mamlakatlarda gender tengligi holati ham ideal darajadan uzoq emas. Masalan, Shvetsiya va Fransiyada ayollar erkaklarnikiga nisbatan maoshlaridagi farq 31 foizga kam, Germaniyada 49 foizga kamroq, Turkiyada esa 75 foizga teng. Hisobot mualliflarining fikriga ko'ra, gender tengsizligiga qarshi kurashning asosiy choralari butun dunyo bo'ylab ayollarni yaxshi ish joylari bilan ta'minlash huquqi kerak.

Shuningdek gender tengligi haqida UNICEF tomonidan ishlab chiqilgan ishchi dasturlar mavjud. Bular: 1. Gender diriminatsiya - Bu dastur ikkala jinsni ham afzal ko'radi bu esa tengsizlikning chuqurlashishiga olib kelishi mumkin 2. Jinsiy ko'rlik dasturi - Dasturlash jinsni e'tiborsiz qoldiradi, status-kvonni saqlab qolishi yoki tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. 3. Gender sezgir dasturi - Tengsizliklarni tan oladi lekin jiddiy hal qilmaydi. 4. Gender responsive dasturi - Qizlar va o'g'il bolalar, ayollar va erkaklarning turli ehtiyojlarini aniqlaydi va hal qiladi, hamma uchun teng natijalarga erishishga yordam beradi. 5. Gender transformativ - Gender tengsizliklarini bartaraf etishga, tizimli to'siqlarni olib tashlashga va nochor aholining imkoniyatlarini kengaytirishga aniq intiladi.

Vazirlar Mahkamasining „ 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalgam oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorida O'zbekiston barqaror rivojlanishining beshinchi maqsadi-gender tenglikni ta'minlash, barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish belgilangan. Unga ko'ra, 2030-yilga borib, barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitilishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini, yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash zarur.

Oily Majlis senatida „Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari” qo'mitasi tashkil etildi. Alohida gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tashkil etilib, u xotin-qizlar va erkaklar uchun keng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi ishlarning holati to'g'risida har yili O'zbekiston Respublikasining Oliy majlisiga axborot taqdim etishi belgilab qo'yildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ayollar va erkaklar tengligi madaniyatini shakllantirish – bu tizimli va doimiy jarayon bo'lib, keng jamoatchilik va fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni talab etadi. Bu borada jamiyatning barcha jabhalari – davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, biznes sub`ektlari, kasaba uyushmalari va keng aholi qatlamlarining birgalikdagi va hamjihatlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat barcha qatlamlarining maqsadli faoliyatini tashkil etish zarur gender-dezagratsiyalangan axborot bazasini yaratish, barcha hududlar darajasida gender vaziyatining gender tahlili va monitoringini o'tkazishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 78 – moddasi 18-bet 2023-yil 1 –may yangi tahriri.
2. Munisa Zokirjonova “Jamiyatga gender tenglik nima uchun kerak? “. Birlashgan Millatlar "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3 Issue 3 www.openscience.uz 505
3. UNICEF foundation of gender-transformative Appro aches <https://cutt.ly/6hatOke>

4. Alimov Sardor Komil o'g'li -GENDER TENGLIK TAMOYILINI
5. SINGDIRISHDA “OILAMAHALLA-TA'LIM TIZIMI”NING O'RNI Academic Research, Uzbekistan 542 www.ares.uz
6. Ibrohim Shuxratovich Fayziyev “Gender tengligi: ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish” ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL
7. SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 2 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal
8. Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
9. “Xotin qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to'g'risida”gi qaror (02.09.2019.).
10. Qodirova, M., & Raxmonov, A. (2023). O'SMIRLARGA XOS NIZOLI
11. VAZIYATLAR VA ULARNING PSIXOLOGIK TAHLILI.